“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Sun'iy intellektni joriy etish sharoitida davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomi: muammolar va istiqbollar

Muxlisa Ibragimova,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro huquq va ommaviy-huquqiy fanlar kafedrasi katta oʻqituvchisi,
Yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: i.mukhlisa57@gamil.com

Аннотация. Sun'iy intellekt davlat boshqaruvida tasniflash, xavfni baholash va tavsiyalar tayyorlashda tobora keng qoʻllanilmoqda, biroq qarorni rasman qabul qiluvchi davlat xizmatchisining huquqiy maqomi yetarlicha oʻrganilmagan. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarning tematik sintezi xalqaro hujjatlar, Germaniya, Fransiya, Kanada va Oʻzbekiston huquqining doktrinal va funksional qiyosiy tahlili bilan uygʻunlashtirilgan. Amaldagi huquq avtomatlashtirishni faqat chekka holatlarda tartibga solishi, OʻRQ-1115-son Qonun esa sun'iy intellektga mutlaq tayanishni taqiqlab, mansabdor shaxs majburiyatlarini belgilamagani aniqlandi. Muallif sun'iy intellekt ta'sirining toʻrt darajali modeli, tabaqalashtirilgan tekshirish majburiyati, natijani rad etish huquqi va majburiyati, javobgarlikni uch tomonlama taqsimlash konsepsiyasi hamda de lege ferenda takliflarni ilgari suradi.

Калит сўзлар. sun'iy intellekt; davlat fuqarolik xizmati; ma'muriy ixtiyoriylik; inson nazorati; tekshirish majburiyati; javobgarlik.

Аннотация. Искусственный интеллект всё шире применяется в государственном управлении для классификации, оценки рисков и подготовки рекомендаций, однако правовой статус государственного служащего, формально принимающего решение, остаётся малоизученным. Исследование сочетает тематический синтез научной литературы с доктринальным и функциональным сравнительно-правовым анализом международных документов, права Германии, Франции, Канады и Узбекистана. Установлено, что действующее право регулирует автоматизацию лишь в крайних случаях, а Закон № ЗРУ-1115 запрещает исключительную опору на ИИ, не определяя обязанностей должностного лица. Автор предлагает четырёхуровневую модель влияния ИИ, дифференцированную обязанность проверки, право и обязанность отклонения результатов ИИ, трёхстороннее распределение ответственности и предложениядelegeferenda.

Ключевые слова. искусственный интеллект; государственная гражданская служба; административное усмотрение; человеческий

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

надзор; обязанность проверки; ответственность.

Annotation. Artificial intelligence is increasingly used in public administration for classification, risk scoring and recommendation, yet the legal status of the civil servant who formally decides remains underexamined. The study combines a thematic synthesis of scholarship with doctrinal and functional comparative analysis of international instruments and the law of Germany, France, Canada and Uzbekistan. It finds that existing law regulates automation only at its extremes, while Uzbekistan's Law No. ZRU-1115 prohibits exclusive reliance on AI without defining the official's duties. The author proposes a four-level model of AI influence, a differentiated duty of verification, a right and duty to override AI outputs, a tripartite allocation of responsibility and de lege ferenda proposals.

Keywords. artificial intelligence; civil service; administrative discretion; human oversight; duty of verification; responsibility.

Davlatlar sun'iy intellekt (keyingi o‘rinlarda – SI) texnologiyalarini davlat faoliyatining deyarli barcha sohalariga joriy etmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (keyingi o‘rinlarda – IHTT) 200 ta amaliy holatni tahlil qilib, SI davlat xizmatlari, nazorat-tekshiruv, firibgarlikni aniqlash va siyosat tahlilida qo‘llanilayotganini, biroq uning samarasi operatsion, axloqiy va ishonch bilan bog‘liq xatarlar bilan birga kelishini ko‘rsatgan [20]. O‘zbekistonda SI ustuvor yo‘nalishga aylangan: PQ-358-son qaror bilan 2030-yilgacha SI texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan [23], u “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining mantiqiy davomidir [22].

SI davlat hokimiyatining ichki tuzilishini ham o‘zgartiradi. Mansabdor shaxs ma'muriy hujjat qabul qilish vakolatini rasman saqlagan holda, ma'lumotlarni saralagan, ishni tasniflagan va natijani taklif qilgan tizimga tayanishi mumkin. Davlat boshqaruvi fanida bu “ko‘cha darajasidagi” byurokratiyadan “tizim darajasidagi” byurokratiyaga o‘tish, ya'ni ixtiyoriylikning (diskretsiyaning) xodimlardan tizim yaratuvchilarga ko‘chishi sifatida tavsiflangan [3]; texnologiya vazifaga qarab ixtiyoriy baholashni cheklashi, kengaytirishi yoki ko‘chirishi mumkin [4], [6].

Huquqshunoslik bu muammoni asosan fuqarolar huquqlarini himoya qilish – avtomatlashtirilgan qarorlarning shaffofligi va ularni nizolashish imkoniyati [8], [10] hamda algoritmlar ustidan hisobdorlik va inson nazorati [7], [16] nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Biroq davlat xizmatchisi maqomi o‘zgarayotgan huquq subyekti sifatida kam tadqiq etiladi: jarayonda inson ishtirok etadimi, degan savol qo‘yiladi, ammo uning vakolatlari va javobgarligi amaldagi nazorat imkoniyatiga mosmi, degan savol deyarli qo‘yilmaydi. B. Wagner bu xavfni “javobgar, lekin nazorat qilmaydi” formulasida ifodalagan [34], M. Elish esa bunday insonni “axloqiy amortizatsiya zonasi” deb atagan [15].

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Tadqiqot savoli quyidagicha: SI davlat hokimiyatini amalga oshirishda sezilarli ishtirok etganda davlat xizmatchisining huquqiy maqomi, vakolatlari, majburiyatlari va javobgarligi qanday transformatsiya qilinishi lozim? Maqolada adabiyotlar mansabdor shaxs pozitsiyasi atrofida umumlashtiriladi, muallifning konseptual modeli taklif etiladi va O‘zbekiston huquqiga tatbiq etiladi.

Tadqiqot materiallari va metodlari

Tadqiqot doktrinal va funksional qiyosiy-huquqiy tahlil bilan uyg‘unlashtirilgan integrativ huquqiy sharhdir. Funksional qiyoslash turli huquq tizimlari bir xil savollarga – avtomatlashtirishga kim ruxsat beradi, natijani kim tekshiradi, undan kim chetga chiqishi mumkin va oqibatlar uchun kim javob beradi – qanday javob berishini aniqlaydi. Tahlilga SI yordamidagi boshqaruvning mansabdor shaxs vakolatlari, majburiyatlari va javobgarligi bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi ilmiy ishlar maqsadli tanlab kiritildi; fundamental ishlar [3], [8], [18] zamonaviy bahslarning asosi sifatida saqlandi.

Huquqiy materiallar sifatida BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) Bosh Assambleyasining A/RES/78/265-son rezolyutsiyasi [32], Yevropa Kengashining SI to‘g‘risidagi doiraviy konvensiyasi [12], IHTT tavsiyasi [21], Yevropa Ittifoqining (keyingi o‘rinlarda – Yel) 2024/1689-son Sun'iy intellekt to‘g‘risidagi reglamenti (keyingi o‘rinlarda – AI Act) [31] va Ma'lumotlarni himoya qilish bo‘yicha umumiy reglamenti (keyingi o‘rinlarda – GDPR) [30], Germaniya, Fransiya va Kanada normalari [14], shuningdek O‘zbekistonning “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi [25], “Ma'muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi [26], “Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risida”gi [28], “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi [24] qonunlari, O‘RQ-1115-son Qonun [27] va PQ-358-son qaror [23] tahlil qilindi. Estoniya, Daniya, Polsha va Chexiya tajribasi ilmiy adabiyot orqali o‘rganildi [19]. Tahlil 2026-yil 27-sentabr holatiga ko‘ra amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari

SI va ma'muriy ixtiyoriylikning transformatsiyasi. Adabiyotlar SIning huquqiy ahamiyatini faqat tizim qarorni rasman qabul qiladimi, degan savol bilan baholab bo‘lmasligini ta'kidlaydi. M. Bovens va S. Zouridis ish yuritish axborot tizimlariga ko‘chganda hal qiluvchi tanlovlar tizimni loyihalash bosqichida amalga oshishini ko‘rsatgan [3]; J. Bullock SI murakkabligi past vazifalarda ixtiyoriylikni siqib chiqarishini qayd etgan [4]. J. Nešpor va hammualliflar SIdan ichki, tashqi va «kvazi-tashqi» foydalanishni farqlaydi [19], ammo bu farqlash tizimning huquqiy natijaga ta'sir kuchini emas, joylashuvini tavsiflaydi. Gaaga tuman sudining 2020-yildagi SyRI (System Risk Indication) ishi – nafaqa firibgarligini aniqlovchi profillash tizimi shaxsiy hayot huquqiga zid deb topilgan – ichki tahliliy vosita ham jiddiy huquqbuzarlikka olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi [29], [2].

SI ixtiyoriylikni yo‘q qilmaydi, balki qayta taqsimlaydi: faktlarni saralash va xavfni prognozlash mansabdor shaxs ishtirokidan oldin, tizimni loyihalovchi va sozlovchi shaxslar tomonidan amalga oshadi

[3], [7]. C. Coglianese va D. Lehr idoralar tizimga kiritilgan tanlovlar uchun mas'uliyatni saqlasa, mashinaviy oʻqitishni ma'muriy huquq bilan uygʻunlashtirish mumkin, deb hisoblaydi [10], D. Citron esa avtomatlashtirish siyosatni sezdirmay qayta yozishidan ogohlantiradi [8].

Qiyosiy huquq ikki texnikani taklif etadi. Germaniya Ma'muriy tartib-taomillar toʻgʻrisidagi qonunining (keyingi oʻrinlarda – VwVfG) 35a-§ ma'muriy hujjatni toʻliq avtomatik chiqarishga faqat qonun ruxsat bergan va ixtiyoriylik mavjud boʻlmagan hollarda yoʻl qoʻyadi [33; § 35a]. Fransiya qonunchiligi algoritmik ishlov berishga asoslangan qarorda bu holat koʻrsatilishini va soʻrov boʻyicha algoritm hissasi, parametrlari va ularning vazni oshkor qilinishini talab etadi [9], Konstitutsiyaviy kengash esa ma'muriyat algoritmni toʻliq «egallashi» lozimligini ta'kidlagan [11; 71-band]. Biroq har ikki texnika eng keng tarqalgan oraliq holatni – mansabdor shaxs rasman qaror qabul qilib, algoritmik natijaga tayanadigan holatni tartibga solmaydi. Natijada rasmiy vakolat va qaror ustidan epistemik nazorat oʻrtasida uzilish yuzaga keladi.

Inson nazorati va protsessual kafolatlar. AI Act yuqori xavfli tizimlar ustidan samarali inson nazoratini, jumladan natijalarni toʻgʻri talqin qilish va ularni bekor qilish imkoniyatini talab qiladi [31; 14-modda], nazoratni esa zarur malaka, tayyorgarlik va vakolatga ega shaxslarga yuklaydi [31; 26-modda 2-qism]. Yevropa Kengashi konvensiyasi [12; 3, 8–9, 14-moddalar] va IHTT tavsiyasi [21] ham inson nazorati va hisobdorlikni prinsip sifatida belgilaydi. GDPRning 22-moddasi faqat avtomatlashtirilgan ishlov berishga asoslangan qarorga duchor boʻlmaslik huquqini beradi [30; 22-modda], YeI Adliya sudi esa SCHUFA ishida avtomatik hisoblangan koʻrsatkich, agar qaror qabul qiluvchi unga kuchli tayansa, qaror hisoblanishi mumkinligini belgilagan [13]. Kanada direktivasi algoritmik ta'sirni baholash va yuqori ta'sir darajalarida inson aralashuvini talab qiladi [14].

Ilmiy adabiyot nazorat samaradorligiga shubha bilan qaraydi. B. Green odamlar koʻpincha kutilgan nazorat funksiyalarini bajara olmasligi va bunday talablar yolgʻon nazorat hissini yaratishi mumkinligini koʻrsatgan [16]. S. Alon-Barkat va M. Busuioc esa eksperimentlarda algoritmga haddan tashqari tayanishni aniqlamagan, biroq stereotiplarga mos maslahatga ergashish tendensiyasini qayd etgan; 1345 nafar davlat xizmatchisi ishtirokidagi tadqiqotda bu tendensiya kuzatilmagan [1]. M. Busuioc hisobdorlik algoritmik hissani tushuntirish imkoniyatini talab qilishini ta'kidlaydi [7], jamoatchilik fikri tadqiqotlari esa inson ishtiroki qaror legitimligini idrok etishda muhimligini koʻrsatadi [17]. Demak, fuqaroning protsessual kafolatlari va xizmatchining professional kafolatlari umumiy shartga – ma'muriy ishda SI hissasining izini kuzatish mumkinligiga tayanadi, amaldagi normalar esa nazoratni xizmatchining huquqiy maqomi orqali emas, tizim va foydalanuvchi orqali tartibga soladi.

Javobgarlik boʻshligʻi. “Javobgarlik boʻshligʻi” tushunchasi xatti-harakatini yaratuvchilar ham oldindan koʻra olmaydigan oʻzi oʻrganuvchi mashinalar uchun ishlab chiqilgan [18]. Davlat boshqaruvida javobgarlik buyurtmachi organ, yetkazib beruvchi, ma'lumotlar guruhi va frontal xodim oʻrtasida tarqaladi va rasmiy javobgarlik natijaga eng kam ta'sir qila oladigan shaxs zimmasida qolishi mumkin [7], [34]. Germaniya Federal davlat xizmatchilari toʻgʻrisidagi qonunining (keyingi oʻrinlarda – BBG) 63-§ xizmatchining shaxsiy javobgarligini koʻrsatmaga e'tiroz bildirish (remonstratsiya) huquqi bilan bogʻlaydi: koʻrsatma yuqori rahbar tomonidan tasdiqlansa, javobgarlik unga oʻtadi [5; § 63]. Biroq koʻrib chiqilgan birorta huquq tizimi xizmatchining SI yordamidagi qarorlar uchun javobgarligini unda amalda mavjud axborot, vakolat va vaqt bilan tizimli bogʻlamaydi.

Oʻzbekiston: amaldagi huquqiy asos. 2026-yil 21-yanvardagi OʻRQ-1115-son Qonun [27; 1-modda] “Axborotlashtirish toʻgʻrisida”gi Qonunga SI ta'rifini va 7^1-moddani kiritdi. Unga koʻra, inson huquq va erkinliklariga oid yuridik ahamiyatga ega qarorlar qabul qilishda faqat SI resurslari va tizimlari xulosalariga tayanishga yoʻl qoʻyilmaydi [24; 7^1-modda]. Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeks SI yordamida shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ishlov berish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 46^2-modda bilan toʻldirildi [27; 2-modda]. 7^1-modda qarorlarda “inson zaxirasi”ni belgilaydi, biroq mutlaq boʻlmagan tayanish nimani talab qilishini, kim va qanday standart boʻyicha tekshirishini hamda tekshirmaslik oqibatlarini belgilamaydi.

“Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida”gi Qonunda SIdan foydalanish haqida norma yoʻq [25]. “Ma'muriy tartib-taomillar toʻgʻrisida”gi Qonun qonuniylik, mutanosiblik, eshitilish huquqi va ma'muriy ixtiyoriylikning qonuniyligi prinsiplarini belgilaydi hamda hujjatni barcha faktik va huquqiy asoslar bilan asoslashni talab qiladi [26; 54-modda], biroq davlat xizmatini oʻtash bilan bogʻliq munosabatlarga tatbiq etilmaydi [26; 3-modda]. Shu bois SI xizmatchilarning oʻziga nisbatan kadrlar qarorlarida qoʻllanilganda bu kafolatlar amal qilmaydi. Natijada minimal tekshiruv standarti, SI natijasini rad etish huquqi, nazoratchilar malakasi, javobgarlikni taqsimlash va ixtiyoriy vakolatlarni avtomatlashtirish chegaralari hal etilmay qolmoqda.

Muhokama

Quyida bayon etilgan model amaldagi huquqning tavsifi emas, balki muallifning normativ sintezidir. An'anaviy modelda huquqiy vakolat, faktlarni baholash, qaror va javobgarlik bir shaxsda birlashadi. SI ular orasiga ommaviy-huquqiy vakolatga ega boʻlmagan subyektlar nazorat qiladigan boʻgʻinlarni – ma'lumotlar, tizim dizayni va algoritmik natijani kiritadi. Shu bois muallif uchta tushunchani farqlashni taklif etadi: rasmiy vakolat (kim qaror qabul qiladi), algoritmik ta'sir (qaror asoslarini kim yoki nima shakllantiradi) va huquqiy javobgarlik (oqibatlarni kim zimmasiga oladi). Algoritmik ta'sir rasmiy vakolatdan ajralganda javobgarlik

imzoga emas, amaldagi nazoratga qarab taqsimlanishi lozim. Bu maqsadda SI ta'sirining to‘rt darajali modeli taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval. SIning ma'muriy vakolatni amalga oshirishga ta'siri darajalaria

a Manba: muallif taklifi; model Kanada direktivasi kabi ta'sirga asoslangan tasniflarni to‘ldiradi.

Darajalar oshgan sari inson malakasi, tekshirish, iz qoldirish, rad etish vakolati va javobgarlikka oid talablar kuchayishi lozim. IV darajaga VwVfG 35a-§ mantig‘iga muvofiq faqat qonun ruxsat bergan va ixtiyoriylik mavjud bo‘lmagan hollarda yo‘l qo‘yilishi kerak.

Tabaqalashtirilgan tekshirish majburiyati. Xizmatchidan tizimning texnik ishlashini qayta tiklashni talab qilish real emas, faqat rasmiy “ko‘rib chiqish” esa samarasiz [16]. Shu bois tekshirish intensivligi SI ta'siri darajasiga bog‘lanishi lozim: I darajada odatiy ko‘rib chiqish, II darajada ma'lumotlar to‘liqligini tekshirish, III darajada esa tavsiyaning huquqan joizligi, faktik asosliligi va vakolat maqsadiga mosligini mustaqil baholash talab etiladi. III darajada mansabdor shaxs to‘rt savolga javob bera olishi kerak: tizim qanday axborotdan foydalangan; natija mazkur ish uchun nima sababdan ahamiyatli; taklif etilgan yechim huquqan joizmi; undan chetga chiqish uchun asos bormi. Bu savollar “Ma'muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun 54-moddasidagi asoslash talabiga amaliy mazmun beradi. Javob berib bo‘lmasa, xizmatchi imzolashga majbur bo‘lmasdan, ishni yuqori instansiyaga yuborish huquqiga ega bo‘lishi lozim.

SI natijasini rad etish huquqi va majburiyati. Nazorat mansabdor shaxs SI ishtirokini bilmaganda, zarur axborot yoki rad etish vakolatiga ega bo‘lmaganda, intizomiy oqibatlardan qo‘rqqanda yoki vaqti va malakasi yetishmaganda nominal bo‘lib qoladi [15], [16], [34]. Shu bois rad etish majburiyati natija qonunga, tekshirilgan faktlarga yoki vakolat maqsadiga zid kelganda yuzaga kelishi, rad etish huquqi esa asosli ravishda chetga chiqqan xizmatchini intizomiy javobgarlikdan himoya qilishi va e'tirozlarni qayd etish imkonini berishi lozim. BBG 63-§dagi remonstratsiya funksional analogdir: xizmatchi asosli e'tirozini qayd etadi, rahbar baribir SI natijasiga tayanishni talab qilsa, javobgarlik unga o‘tadi. Bu kafolatlar shaxsiy imtiyoz emas, qonuniy boshqaruvning institutsional sharti bo‘lib, xizmatchilar stereotipga mos maslahatga ergashish xavfiga ham javob beradi [1].

Javobgarlikni taqsimlash. Muallif algoritmni hokimiyat egasi sifatida ko‘rishdan ham, xizmatchini uning nazoratidan tashqaridagi sharoitlar uchun yakka javobgar qilishdan ham qochadigan uch tomonlama modelni taklif etadi (2-jadval).

2-jadval. Javobgarlikni uch tomonlama taqsimlasha

a Manba: muallif taklifi; taqsimlash normativ xususiyatga ega va amaldagi huquqni tavsiflamaydi.

Xizmatchining javobgarligi amaldagi nazoratga mos bo‘lishi kerak: yetarli axborot va vakolatga ega bo‘la turib ochiq-oydin nuqsonli natijani qabul qilgan xizmatchi javobgar, tashkiliy sabablarga ko‘ra tekshira olmagan xizmatchi esa javobgar emas.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Xususiy yetkazib beruvchidan foydalanish fuqaroning himoya vositalarini parchalamasligi, davlat organi esa ommaviy-huquqiy javobgarlikdan qochib qutula olmasligi lozim.

O‘zbekiston uchun de lege ferenda takliflar. Birinchidan, SI yordamidagi faoliyatni to‘liq avtomatlashtirilgan qarorlardan farqlash va SIdan foydalanishni vakolatga ta'siri darajasi bo‘yicha tasniflash “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun 7^1-moddasidagi “faqat xulosalarga tayanish” tushunchasiga amaliy mazmun beradi. Ikkinchidan, SI shaxs huquqlariga ta'sir qiluvchi qarorga sezilarli hissa qo‘shganda ma'muriy ishda bu hissa va mansabdor shaxsning unga bergan bahosi aks ettirilishi, qayd etilmaganlik esa asoslashdagi nuqson sifatida baholanishi lozim. Uchinchidan, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunda mutanosib tekshirish majburiyati, SI natijasini rad etish huquqi va majburiyati, ishni yuqori instansiyaga yuborish huquqi, asosli chetga chiqish uchun intizomiy javobgarlikdan himoya va o‘qitish huquqi mustahkamlanishi kerak; bunda AI Act 26-moddasidagi “malaka, tayyorgarlik, vakolat” modeli namuna bo‘la oladi. To‘rtinchidan, intizomiy javobgarlik asoslari shaxsiy aybni davlat organi javob beradigan tashkiliy nuqsonlardan farqlashi zarur. Beshinchidan, ixtiyoriy vakolatlarni to‘liq avtomatlashtirishga faqat qonun ruxsati bilan yo‘l qo‘yilishi lozim. Oltinchidan, “Ma'muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun prinsiplari SIdan foydalanish bilan bevosita bog‘lanishi, yettinchidan, uning 3-moddasi davlat xizmatini istisno etgani sababli xizmatchilarga nisbatan SI yordamidagi kadrlar qarorlari uchun xabardor qilish, baholash bilan tanishish va qayta ko‘rib chiqish kafolatlari belgilanishi kerak.

Tadqiqot cheklovlari ham mavjud: manbalar maqsadli tanlangan, milliy tizimlar ma'muriy an'analari jihatidan farqlanadi va normalarni moslashtirmasdan ko‘chirib bo‘lmaydi, O‘zbekiston xizmatchilarining SIdan amalda foydalanishi esa empirik o‘rganilmagan.

Xulosa

SI ma'muriyat vositalarini emas, hokimiyatni amalga oshirish tuzilmasini o‘zgartirib, ixtiyoriylikning bir qismini tizim dizayniga ko‘chiradi va rasmiy vakolat, algoritmik ta'sir hamda huquqiy javobgarlikni bir-biridan ajratadi. Xalqaro va qiyosiy huquq inson nazorati, shaffoflik va hisobdorlik borasida muhim unsurlarni taklif etsa-da, mansabdor shaxs maqomiga asoslangan yaxlit modelni shakllantirmagan, O‘zbekistonning O‘RQ-1115-son Qonuni esa SIga mutlaq tayanishni taqiqlab, mas'ul xizmatchi nima qilishi lozimligini belgilamay qoldirgan. Shu bois davlat xizmatchisining maqomi, tekshirish majburiyati, natijani rad etish huquqi va javobgarligi SI ta'siri darajasi va amaldagi nazoratga qarab belgilanishi lozim. SI davlat boshqaruvida inson omilini yo‘q qilmaydi, balki inson ishtiroki, vakolati va javobgarligining huquqiy mazmunini aniqroq belgilashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alon-Barkat S., Busuioc M. Human–AI interactions in public sector decision making: “automation bias” and “selective adherence” to algorithmic advice // Journal of Public Administration Research and Theory. – 2023. – Vol. 33, No. 1. – P. 153–169. – DOI: 10.1093/jopart/muac007.

2. Appelman N., Ó Fathaigh R., van Hoboken J. Social welfare, risk profiling and fundamental rights: the case of SyRI in the Netherlands // JIPITEC. – 2021. – Vol. 12, No. 4. – P. 257–271.

3. Bovens M., Zouridis S. From street-level to system-level bureaucracies: how information and communication technology is transforming administrative discretion and constitutional control // Public Administration Review. – 2002. – Vol. 62, No. 2. – P. 174–184.

4. Bullock J.B. Artificial intelligence, discretion, and bureaucracy // The American Review of Public Administration. – 2019. – Vol. 49, No. 7. – P. 751–761.

5. Bundesbeamtengesetz vom 5. Februar 2009 (BGBl. I S. 160), § 63.

6. Busch P.A., Henriksen H.Z. Digital discretion: a systematic literature review of ICT and street-level discretion // Information Polity. – 2018. – Vol. 23, No. 1. – P. 3–28.

7. Busuioc M. Accountable artificial intelligence: holding algorithms to account // Public Administration Review. – 2021. – Vol. 81, No. 5. – P. 825–836. – DOI: 10.1111/puar.13293.

8. Citron D.K. Technological due process // Washington University Law Review. – 2008. – Vol. 85, No. 6. – P. 1249–1313.

9. Code des relations entre le public et l'administration (France). – Art. L311-3-1, R311-3-1-2.

10. Coglianese C., Lehr D. Regulating by robot: administrative decision making in the machine-learning era // Georgetown Law Journal. – 2017. – Vol. 105, No. 5. – P. 1147–1223.

11. Conseil constitutionnel. Décision n° 2018-765 DC du 12 juin 2018. Loi relative à la protection des données personnelles.

12. Council of Europe Framework Convention on Artificial Intelligence and Human Rights, Democracy and the Rule of Law (CETS No. 225). – Vilnius, 5 September 2024.

13. Court of Justice of the European Union. Judgment of 7 December 2023, SCHUFA Holding (Scoring), Case C-634/21, ECLI:EU:C:2023:957.

14. Directive on Automated Decision-Making / Treasury Board of Canada Secretariat (as amended). – Appendices B, C.

15. Elish M.C. Moral crumple zones: cautionary tales in human-robot interaction // Engaging Science, Technology, and Society. – 2019. – Vol. 5. – P. 40–60.

16. Green B. The flaws of policies requiring human oversight of government algorithms // Computer Law & Security Review. – 2022. – Vol. 45. – Art. 105681.

17. Helberger N., Araujo T., de Vreese C.H. Who is the fairest of them all? Public attitudes and expectations regarding automated decision-making // Computer Law & Security Review. – 2020. – Vol.

39. – Art. 105456.

18. Matthias A. The responsibility gap: ascribing responsibility for the actions of learning automata // Ethics and Information Technology. – 2004. – Vol. 6, No. 3. – P. 175–183.

19. Nešpor J., Jareš A., Klimentová E. AI and public administration: transforming governance with caution // Acta Universitatis Carolinae Iuridica. – 2026. – Vol. 72, No. 1. – P. 97 et seq. – DOI: 10.14712/23366478.2026.7.

20. OECD. Governing with artificial intelligence: the state of play and way forward in core government functions. – Paris: OECD Publishing, 2025. – DOI: 10.1787/795de142-en.

21. OECD. Recommendation of the Council on Artificial Intelligence, OECD/LEGAL/0449. – 2019 (amended 2024).

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6079-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi «2030-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-358-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz). – URL: https://lex.uz/acts/-7158604.

24. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi 560-II-son Qonuni (2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son Qonun tahririda) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

25. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi «Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida»gi O‘RQ-788-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz). – URL: https://lex.uz/docs/-6145972.

26. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi «Ma'muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi O‘RQ-457-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz). – URL: https://lex.uz/docs/-3492199.

27. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sun'iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish munosabati bilan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-1115-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz). – URL: https://lex.uz/uz/docs/-8008401.

28. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi «Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risida»gi O‘RQ-547-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

29. Rechtbank Den Haag. Judgment of 5 February 2020, ECLI:NL:RBDHA:2020:865 (SyRI).

30. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 (General Data Protection Regulation) // OJ L 119, 4.5.2016. – P. 1–88.

31. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act) // OJ L, 2024/1689, 12.7.2024.

32. United Nations General Assembly. Resolution A/RES/78/265 “Seizing the opportunities of safe, secure and trustworthy artificial intelligence systems for sustainable development”. – 21 March 2024.

33. Verwaltungsverfahrensgesetz (VwVfG) in der Fassung der Bekanntmachung vom 23. Januar 2003, § 35a.

34. Wagner B. Liable, but not in control? Ensuring meaningful human agency in automated decision-making systems // Policy & Internet. – 2019. – Vol. 11, No. 1. – P. 104–122.